
Hokimlik qabuli: Har bir murojaat – e'tiborda!

Bugun Rishton tumani Xalq qabulxonasi binosida tuman hokimi va sektor rahbarlari ishtirokida navbatdagi fuqarolar qabuli o'tkazildi. Qabulda muammosi va murojati bo'lgan fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlarini birma-bir tinglandi. Ochiq va samimiy muloqot tarzida kechgan qabulda tuman hokimiva sektor rahbarlari boshchiligida hokim o'rinbosarlari, tumandagi mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirokida elektr energiyasi, ish bilan ta'minlash, kontrakt to'lovini to'lashda amaliy yordam berish va gazbalon bilan ta'minlash bilan bog'liq 25 ta murojaatlar kelib tushdi. Muammolar bo'yicha tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rildi. Murojaatlarning 10 tasi shu joyning o'zida hal etilgan bo'lsa, 12 ta masalaga huquqiy tushuntirish berilib, qolgan masalalar ijroga qaratildi. Ta'kidlangandek, har bir murojaat asoslicha o'rganilib chiqiladi va qonuniy yo'l bilan yechimini topadi.

2023-01-19 13:58:57